XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-48-113-9-130-K/21 Guliston shahar hokimligi

2022 yilgi shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda shahar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

2021 yilgi Guliston shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda shahar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabr, O‘RQ-360-sonli qonuni va O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 99-moddasini ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabr kungi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shaharning shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Shahar mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2021 yil uchun shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 3-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan (bundan buyon – Qonun) shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-

ilovaga muvofiq;

Shaharlar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy byudjetli daromadlari prognozi hamda xarajatlari ijrosi natijasidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonun bilan belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun:

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 6-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo‘llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanishi belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Qonunning 6-moddasi bilan viloyat byudjetidan 2022 yilgi shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 68,9 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2022 yil uchun shaharning shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1,1 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar byudjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

6. Shahar byudjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun etarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda shahar mahalliy byudjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Byudjet xarajatlarini qisqartirishda byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘larini oluvchilarning byudjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi.

7. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari shahar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari va alkogol maxsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra shahar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

Qonunga muvofiq Xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlari:

tuman va shaharlarning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga o‘tkazilishi belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 8-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat shahar mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

Shahar hokimliklari tegishli byudjetlarini birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantiradi.

10. Shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 (besh) foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushishi ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan Sirdaryo viloyat hokimligiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

11. Qonunga muvofiq 2022 yildan boshlab hududlarda barcha issiqlik energiyasini etkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra Xalq deputatlari shahar Kengashi qarori bilan ma’qullanganidan so‘ng shahar hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

Issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab shaharning shahar mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

12. Shahar mahalliy byudjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Shahar mahalliy byudjeti qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

13. Byudjet jarayonini ochiqligini ta’minlash maqsadida shahar hokimliklari har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining
10-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlariga:

Shahar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni;

kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari;

davlat xaridlari;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 (o‘ttiz) foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi natijalarini joylashtirilishini ta’minlasin.

14. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (G‘.Botirov) zimmasiga yuklatilsin.

15. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Tursunov) zimmasiga yuklatilsin.

16. Ushbu qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **T.T.Dadabayev**

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
1-илова

2022 yil uchun Guliston shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Miqdori
Daromadlar miqdori, jami		**121 501 755**
	shu jumladan:	
	Mahalliy daromadlar	**52 609 152**
	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	**68 892 603**
1	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	19 877 474
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 653 104
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	3 476 154
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	400 943
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 470 417
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	433 296
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 254 305
8	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	48 454
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	349 888
10	Ijara to‘lovi	700 797
11	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	5 656 160
12	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	3 222 030
13	Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i	6 066 130
14	Respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori	68 892 603

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Guliston shahar byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**121 501 755**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**102 097 481**
	Zaxira jamg‘armasi	**1 146 243**
	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	**18 258 031**
1	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**8 928 876**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 928 876
2	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**10 328 372**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 328 372
3	**Tibbiyot birlashmasi**	**39 604 479**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	39 604 479
4	**Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar**	**63 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	63 000
5	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**166 289**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	166 289
6	**Madaniyat bo‘limi**	**1 039 371**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 039 371
7	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**3 798 202**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 798 202
8	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**653 800**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	653 800
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**21 572 704**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	21 572 704
10	**Davlat boshqaruv organlari**	**8 291 636**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 145 393
	Zaxira jamg‘armasi	1 146 243
10	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**18 258 031**
11	**Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organi saqlash**	**2 400 983**
12	**Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**664 797**
13	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**5 731 215**

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun Guliston shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	**52 609 152**	**121 501 755**
Guliston shahri	52 609 152	121 501 755

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

**Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar - Guliston.sh. 38 379 554 ming so‘m

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
4-илова

Guliston shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Guliston shahri	100	100	100	100	100	100	10	10	3

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
5-илова

Guliston shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**68 892 603**
shundan	
Guliston shahri	68 892 603

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda
			Guliston shahri
1.	**Uy-joylar:**		
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	9 000
	noturar joy		17 000
2.	**Avtomobil transporti:**		
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	575 000
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 150 000

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
7-илова

2022 yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari

Yig‘imlarning turlari	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**
	Guliston shahri
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	1 200 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	600 000

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
8-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Ahillik MFY	1,3	28 600,0
2	Navbahor MFY	1,3	28 600,0
3	Yangi hayot MFY	1,3	28 600,0
4	Shodlik MFY	1,3	28 600,0
5	Do‘stlik MFY	1,3	28 600,0
6	Bo‘ston MFY	1,3	28 600,0
7	Istiqlol MFY	1,3	28 600,0
8	Ulug‘obod MFY	1,3	28 600,0
9	Namuna MFY	1,3	28 600,0
10	Sayqal MFY	1,3	28 600,0
11	Bog‘ishamol MFY	1,3	28 600,0
12	Obod yurt MFY	1,3	28 600,0
13	Taraqqiyot MFY	1,3	28 600,0
14	Manaviyat MFY	1,3	28 600,0
15	Madaniyat MFY	1,3	28 600,0
16	Ulug‘ yo‘l MFY	1,3	28 600,0
17	Ibratli MFY	1,3	28 600,0
18	Baxor MFY	1,3	28 600,0
19	Yuksalish MFY	1,3	28 600,0
20	Soxil MFY	1,3	28 600,0
21	Baxt MFY	1,3	28 600,0

22	Nixol MFY	1,3	28 600,0
23	Nurafshon MFY	1,3	28 600,0
24	Byuuk kelajak MFY	1,3	28 600,0

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
9-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Ahillik MFY	1,07	205,0
2	Navbahor MFY	1,07	205,0
3	Yangi hayot MFY	1,07	205,0
4	Shodlik MFY	1,07	205,0
5	Do‘stlik MFY	1,07	205,0
6	Bo‘ston MFY	1,07	205,0
7	Istiqlol MFY	1,07	205,0
8	Ulug‘obod MFY	1,07	205,0
9	Namuna MFY	1,07	205,0
10	Sayqal MFY	1,07	205,0
11	Bog‘ishamol MFY	1,07	205,0
12	Obod yurt MFY	1,07	205,0
13	Taraqqiyot MFY	1,07	205,0
14	Manaviyat MFY	1,07	205,0
15	Madaniyat MFY	1,07	205,0
16	Ulug‘ yo‘l MFY	1,07	205,0
17	Ibratli MFY	1,07	205,0
18	Baxor MFY	1,07	205,0
19	Yuksalish MFY	1,07	205,0
20	Soxil MFY	1,07	205,0
21	Baxt MFY	1,07	205,0

22	Nixol MFY	1,07	205,0
23	Nurafshon MFY	1,07	205,0
24	Byuuk kelajak MFY	1,07	205,0

Халқ депутатлари Гулистон шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-113-9-130-K/21-сон қарорига
10-илова

Guliston shahar hokimining “2022 yilgi shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda shahar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi yuzasidan

Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha.

CHEKLIST

Yo‘nalishlar	Korrupsiyaviy omillar	Javoblar				Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi			yo‘q		
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi			yo‘q		
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskresion vakolatlarning kengligi			yo‘q		
	Aniq belgilanmagan vakolatlar			yo‘q		
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi			yo‘q		
	Davlat organi tomonidan o‘zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi			yo‘q		
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi			yo‘q		
	Kechiktirib tartibga solish			yo‘q		
	Manfaatlar to‘qnashuvi			yo‘q		
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish			yo‘q		
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar			yo‘q		
Ma’muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi			yo‘q		
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o‘rnatilishi			yo‘q		
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi			yo‘q		
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	Sanksiyalarning nomutanosibligi			yo‘q		
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi			yo‘q		

Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi			yo‘q		
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar			yo‘q		
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi			yo‘q		